

## Sirdaryo viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026-yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


### I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 345 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 8 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 337 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 1 105,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 117,6 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 91,5 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 127,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1 014,2 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 116,8 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 131,5 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 126,4 %) tashkil etdi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)



Mavzuga doir havola: [Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

### Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




## II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni 1 162 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 23 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 139 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2026-yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 045,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 6,1 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 1 020,2 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 120,4 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 97,6 % ni tashkil qildi.


### Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori o'sish sur'ati Yangier shahar (134,4 %) hamda Oqoltin (2,7 m.) va Sardoba (169,6 %) tumanlarida kuzatildi.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

### III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026-yil 1-mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 655 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 654 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-fevral oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 661,0 mlrd so'mga yetdi. 2025-yilning mos davriga nisbatan 17,4 % ga o'sdi. Bunda savdo aylanmasining 83,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

### Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



#### IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi–2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

#### V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

<b>Chop etishga mas'ul:</b> Xizmatlar va savdo soxasi statistikasi bo'limi	<b>Bo'lim boshlig'i:</b> A.Qurbonov Tel: +672367000 (2040)	<b>Ijrochi:</b> A.Qurbonov Tel: +672367000 (2040) e-pochta: info@sirstat.uz	<b>Manzil:</b> Guliston sh., Birlashgan ko'chasi,62
--	--	---	--